

**XO‘JANAZAR HUVAYDONING “ROHATI DIL” DOSTONI VA UNING  
BADIY, G‘OYAVIY XUSUSIYATLARI**

**Jumagul OCHILDIYEVA,**

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti  
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878462>

**Annontatsiya:** *Maqolada Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” dostonidagi badiiy-g‘oyaviy xususiyatlar, yozilish maqsadi va tarbiyaviy ahamiyati haqida bayon qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Rohati dil, hikoyat, rivoyat, g‘azal, misra, she‘riy san‘atlar, nazm, din, iymon, jannat, tamug‘, takrir, talmeh, istiyora, ijodiy meros.*

**Аннотация:** *В статье рассматриваются художественно-идеологические особенности, цель написания и воспитательное значение этической поэмы Ходжаназара Хувайдо «Рохати Дил» («Услада сердца»).*

**Ключевые слова:** *Рохати Дил, рассказ, предание, газель, стих, поэтические приёмы, поэзия, религия, вера, рай, ад, повторение, аллюзия, метафора, творческое наследие.*

**Annotation:** *The article explores the artistic and ideological features, purpose, and educational significance of Khojanazar Huvaydo’s “Rohati Dil” (“Delight of the Heart”) epic poem.*

**Keywords:** *Rohati Dil, tale, legend, ghazal, verse, poetic devices, poetry, religion, faith, paradise, hell, repetition, allusion, metaphor, creative heritage.*

Mulla Xo‘janazar Huvaydo o‘zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri hisoblanadi. Uning bizgacha yetib kelgan ijodiy merosi xalq tiliga yaqinligi, jozibasi va nafisligi bilan ajralib turadi. Xo‘janazar G‘oyibnazar o‘g‘li Chimyonda tug‘ilgan va dastlabki ta‘limni o‘sha yerda olgan, so‘ng tahsilni Qo‘qon madrasasida davom ettirgan. 1780-yil Chimyon hududida vafot etgan. Xo‘janazar Huvaydoning hayoti va ijodi hali keng o‘rganilmagan. Shu bois uning hayoti haqida kam ma‘lumotga egamiz.

Xo‘janazar Huvaydoning “Rohati dil” dostoni diniy-axloqiy asar bo‘lib, tarbiyaviy ahamiyatga ega. Asar diniy ruhda, yozilgan bo‘lib, insonlarni to‘g‘ri yo‘lga chorlaydi. “Rohati dil” dillarning rohatidir. Haqiqatdan asarni o‘qigan inson hayot tashvishlaridan biroz bo‘lsa-da chetlashadi, ko‘ngli orom oladi. “Rohati dil” diniy-didaktik asar bo‘lani bois muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. U insonlar o‘z ichki dunyosiga nazar solib, hayotini, amallarini chuqur o‘ylab tahlil qilishiga yordam beradi. Asarni o‘rganish, uni keng ommaga tadbiq qilish, yoshlarga o‘rgatish kelajak uchun go‘zal axloqli, keng fikrli, mustahkam iymonli va toza ruhiyati insonlarni tarbiyalashga ulkan hissa. Huvaydo dostonida diniy tushunchalarni keng bayon etgan, ularni sodda tilda, go‘zal shaklda yoritib berganligi bois o‘qigan odam nafaqat o‘ziga

kerakli xulosa chiqaradi, balki diniy bilimi ham ortadi. U orqali islom dini tarixi haqida ham ancha bilimga ega bo‘lishimiz mumkin. Asar nazmda yozilgan bo‘lib xalq tiliga yaqinligi bois insonlar orasida sevib mutolaa qilingan. Asar ma‘lum bir syujet chizig‘iga ega emas, rivoyat , hikoyat va bayonlardan tashkil topgan, asar so‘ngida g‘azallar ham mavjud. “Rohati dil” da yigirmaga yaqin hikoyat va o‘nga yaqin bayon va rivoyatlar bo‘lib asarning umumiy hajmi 4525 misradan iborat. U hazaji muassasasi mahzuf vaznida yozilgan. Huvaydo asarning yozilish maqsadi haqida “Bayoni Hasan va Husayn raziyallohu anho” qismida ushbu misralarni yozgan:

Bo‘lib bu so‘z nogoh ko‘nglimga ma‘qul  
Tani xashmgin aningdek ayladi havl  
Ko‘ngulda ildam ushbu bahona  
Dedim bo‘lg‘ay bu maktubim nishona  
Ki mandin qolsa dedim yodgore  
Kitobim ketsa har shahri diyore  
O‘qub shoyad eranlar shod bo‘lg‘ay  
Duoda ruhi pokimyod qilg‘ay.

Ya‘ni kitobim mendan yodgor qolsin, uni ko‘p insonlar o‘qisin va haqqimga duo qilsin.

Doston an‘anaviy tarzda Allohga hamd, payg‘ambar va chohoriyorga nat bilan boshlangan. “Rohati dil”da boshqa asarlarda uchramaydigan Alining o‘g‘illari Hasan va Husayn haqida bayonni ham uchratishimiz mumkin.

Asarni 30 bobdan iborat bo‘lib, mazmuniy jihatdan olti qismga ajratib o‘rganishimiz maqsadga muvofiqdir:

1. Ollohga hamd qismi,
2. Payg‘ambarga nat qismi,
3. Chohoriyorga ta‘rifi qismi,
4. Bayoni Hasan va Husayn raziyallohu anho qismi,
5. Asosiy qism,
6. Xotima.

1. Ollohga hamd qismida Yaratgan payg‘ambarlarga bergan mo‘zijalariga ishora tarzida bitilgan baytlardan Huvaydoning chuqur diniy bilimga ega va mahoratli shoir ekanining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

2. Payg‘ambarga nat qismida Rasululloh va Jabroil alayhissalom hikoyati mavjud.

3. Chohoriyorga bayoni qismida Abu Bakr Siddiq, Umar ibni Hattob, Usmon ibni Affon, Ali ibni Abu Tolib haqida bayon qilingan.

4. Bayoni Hasan va Husayn raziyallohu anho qismida dunyoning o‘tkinchiligi alohida ta’kidlanadi .

5. Asosiy qism beshinchi bobdan boshlanadi.

Bunda muallif va asar haqida ma’lumot berilgan.

Kitobimning otidir “Rohati dil”,

Erur har bir so‘zi tanbehi g‘ofil.

O‘qub yod aylangiz Oллоhu Akbar,

Duo aylab deyingiz, ey birodar.

Duodin o‘zga sizlarga so‘zim yo‘q,

Bu dunyoda so‘zim qolg‘ay, o‘zim yo‘q.

Kaminaning oti Xo‘ja Nazardur,

Otasining oti G‘oyibnazardur.

Nasabda Ravshaniy, mavludi Chimyon,

G‘aribi hokisori dil parishon.

Ko‘ngul shahri yagona azm qildim,

Kitobim nasr erdi man nazm qildim.

Bu Chimyon shahrining pir-u javoni,

Tamomiysi erurlar turkiyxoni.

Agar garchi so‘zga behunarroq,

Dedim bo‘lsa kitobim turkiy behroq.

Ba’zi manbalarda asar dastlab forsiy tilda yozilgani so‘ng muallif uni turkiyda yozgani haqida ma’lumotlar bor. Asosiy qismimizda bir qancha hikoyat, bayon va rivoyatlar mavjud. Ular ma’no jihatidan bog‘liq holda, to‘g‘ri tartibda joylashtirilgan. Asardagi eng muhim hikoyatlardan biri Ibrohim bin Adham rahmatullohi alayh hisoblanadi. Hikoyada Balx shohining qizi bir kun kasal bo‘lib vafot etadi, uni qabristonga dafn qilishadi, o‘sha tun qabristondan o‘tayotgan Adham kimdir faryod qilayotganini eshitib nima gunoh sababidan azoblanayotganini so‘raydi, qabr malikaniki va u tirik edi, Adham uni qutqaradi va ular turmush qurib Ibrohim Adham deb ism qo‘yadilar. Yillar o‘tib malika enagasi Ibrohimni ko‘rib malikaga o‘xshatadi, unga hadyalar berib saroyga olib boradi shu tariqa sir fosh bo‘ladi. Balx shohi vafotidan so‘ng Ibrohim Adham shoh bo‘ladi. U adolatli shoh bo‘ladi, ammo vaqt o‘tibtaxtdan voz kechib darveshlikni tanlaydi. Har qadamda ikki rakat namoz o‘qib hajga boradi, borganda esa Ka’ba joyida bo‘lmaydi, u Robiya ismli ayol yoniga ketgan bo‘ladi. Bundan hayron Ibrohim Adham o‘sha ayol yoniga borib sababini so‘raganda ayol bir chanqagan itga suv berganini aytadi. Qissadan hissa shuki, avvalo niyyat go‘zal bo‘lishi, amallar qalbgga ham jo bo‘lganda mukammal hisoblanishi nazarda tutilgan.

Asardagi “Dar bayoni asmoi jahannam” bayonida Huvaydo jahannamning yettita darvozasi va undan kimlar kirishi haqida yozgan. 1-Hoviya darvozasi bo‘lib, uning nomi Qur’oni Karimda keltirilgan. 2-jahim darvozasi bo‘lib, undan zinokorlar, imomiga hiyonat qiladiganlar, yog‘onchi va chaqimchilar tushadi. 3-saqar bo‘lib, unga zolimlar, poraxo‘r qozilar, harom mol yegan va beamallar tushadi. 4-luzo bo‘lib unga shaytonga hamroh insonlar tushadi. 5-Sa’ir bo‘lib unga bo‘za (alkogol) ichgan, foizga pul ogan, tarozidan urib qoladigan odamlar tushadi. 6-xatma bo‘lib unga Qur’onni noto‘g‘ri talqin qilganlar, hadislar ma’nosini o‘zgartirib aytganlar tushadi. 7- nor bo‘lib unga qo‘shniga ozor berganlar, benamozlar tushadi deya bayon qilgan.

“Rohati dil”da 6 ta g‘azal ham mavjud bo‘lib ularning eng kichigining hajmi 3 bayt va eng kattasining hajmi 16 baytni tashkil qiladi.

“Kishi” radifli g‘azali

Dunyoni tark etuvchi uqbog‘a yuz urg‘on kishi,  
Jannat ila hurni netar Mavlo yuzin ko‘rgan kishi.

(Dunyoni tark etuvchi umri oxirlab qolgan odamga,  
Olloh jamolini ko‘rish jannat va undagi hurlardan afzaldir.)

She’riy san’atlar: yuz, yuzin – takrir, jannat, hur- tanosub,

Kim bexabardir Mavlodin, mag‘rur erur dunyosig‘a,

Dunyoning mulkin naylasin ondin xabar olg‘on kishi.

(Ollohni tanimagan inson mol-dunyoga berilgan bo‘ladi,

Haqni taniganlarga esa dunyo mulklari kerak emas.) dunyo, dunyo – takrir,  
bexabardir Mavlodin – istiyora.

Fag‘furi qaysar mulkni boshig‘a ursunmu oni,

Netsun Sulaymon taxtini, ishq taxtiga mingan kishi.

(Yaratgan ishq bilan to‘lgan ko‘ngilga Sulaymon taxtini kerak emas, u bu hayot boyliklariga qiziqmaydi) Sulaymon- talmeh; taxt, taxt- takrir.

Asosiy qismda yana jannat, do‘zax, qo‘shni haqqi, zino, namoz, benamozlar, yolg‘on, g‘iybat kabi qator masalalarning bayoni ta’sirli va tushunarli tarzda berilgan.

Xotimada Huvaydo Yaratganga murojaat qilib gunohlarini kechirishini, doim to‘g‘ri yo‘lda qoyim bo‘lishini, turli yomonliklardan asrashini so‘raydi.

Shuni xolosa qilib aytishimiz mumkinki, asar bugungi kunda ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan o‘zbek adabiyoti durdonalaridan biridir. Dostonni o‘qigan har bir inson misralardagi nafislik, barcha hikoyalar bir-biriga uyg‘unligi va sharqona uslubdan zavqlanadi. Huvaydo ijodida, xususan, “Rohati dil” asarida Alisher Navoiy ijodining ta’sirini sezishimiz mumkin. Asarni tuzilishi jihatidan “Hayrat ul-abror” dostoniga o‘xshatish mumkin. Asarni o‘qish davomida kishi beixtiyor o‘yga toladi

va o‘z hayoti, amallari, umrini nimaga sarflayotgani haqida tafakkur qila boshlaydi. Asardagi har bir hikoyani alohida mazmun va g‘oyasi bo‘lgan asar sifatida olishimiz mumkin. Dostonning g‘oyalaridan biri yetuk insonni tarbiyalashdir. “Rohati dil” biz uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijodiy me‘rosdir. Uni ko‘proq insonlar o‘qishi, ayniqsa yoshlarimiz o‘qib o‘z ichki dunyosiga nazar tashlashini ta‘minlash ularning yetuk shaxs bo‘lishlariga ko‘maklashadi. Asarning bugungi kundagi ahamiyati yana shulardan iboratki o‘zligini anglashiga va ruhiyati pok insonlar bo‘lishiga katta yordam beradi. 21-asr texnika-texnologiya rivojlangan, insoniyat asosiy vaqtini virtual olamda o‘tkazayotgan va o‘rtadagi mehr-oqibat biroz ko‘tarilgan davr desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu davrda dunyoga bo‘lgan muhabbatimizni ozroq pasaytirib, yaratilishimiz sababini, bu yerda abadiy qolmasligimizni, har qilingan ishning jazosi va mukofoti borligini fikr qilib ko‘rishimizda ushbu asar bizga yaxshi ko‘makchi bo‘la oladi. Asar bizgacha yetib kelgan sara ijodiy meroslarimizdan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xo‘janazar Huvaydo “Rohati dil” Toshkent; 1994-yil “Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi” nashriyoti
2. O‘zbek adabiyoti. 3-jild. — T.:, 1978.
3. Tanlangan asarlar, T., 1960; Rohati dil, T., 1993; Ibrohim Adham, Samarqand, 1995.
4. Huvaydo. Rohati dil. Ibrohim Adham (Tabdil nashrga tayyorlovchi va so‘z boshi muallifi Qodirqul Ro‘zmatzoda). T. “Navro‘z”, 2011 B. 35.
5. Huvaydoning badiiy falsafiy me‘rosi. Qodirqul Ro‘zmatzoda “Sharq yulduzi” jurnali, 2015 – 1.
6. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an‘anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. [https://oriens.uz/media/conferencearticles/5\\_ORAZBAYEVA\\_Mahbuba\\_28-32.pdf](https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf).
7. Omanova, M. (2024). Nizomiy Ganjaviy merosining alisher navoiy ijodiga ta‘siri. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
8. Kadirova M.N. Technological solutions and innovative digital tools. Netherlands. <https://staff.tiame.uz/storage/users/829/articles/nyOCfZLWmrPLJiMMJmugxLcoqGUmIvB9cP2PPxaq.pdf>
9. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma‘lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.
10. Kalandarova, Dilafuz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.